| Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanyovna                                                                                                                                       |     |
| ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQRISH<br>BO'YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQRISH .....                                                               | 531 |
| Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna, Absamatov Baxrom Danakulovich                                                                                        |     |
| KASBIY TA'LIM MAZMUNIDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI<br>RAG'BATLANTIRISH ORQALI O'RTA BO'G'IN KADRLAR TAYYORLASHNING JOZIBADORLIGINI<br>OSHIRISH YO'NALISHLARI ..... | 538 |
| Tojiyev Sirojiddin Sayriddinovich                                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH TIZIMINING TURLARI<br>VA SHAKLLARI.....                                                                                           | 542 |
| Muminova Mavjuda Sharifovna                                                                                                                                                        |     |
| SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGI<br>MASALALARI .....                                                                                              | 547 |
| Kadirkhodjayeva Nilufar Rahmatullayevna                                                                                                                                            |     |
| MHXSGA MUVOFIQ ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....                                                                                                             | 552 |
| Aliyev Sherzod Abdixomidovich                                                                                                                                                      |     |
| ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА<br>ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....                                                                                        | 558 |
| Аллаева Г.Ж.                                                                                                                                                                       |     |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH<br>YO'NALISHLARI .....                                                                                      | 564 |
| Irisqulova Munisa Akmal qizi                                                                                                                                                       |     |
| TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARI DOIRASIDA 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR<br>TAHLILI .....                                                                                      | 569 |
| Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li                                                                                                                                                |     |
| MINTAQA SANOATIDA AHOLI JON BOSHIGA YAQQ O'ZGARISHINING DINAMIK TAHLILI.....                                                                                                       | 574 |
| Nabiyev G'ulom Abdusalomovich                                                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| INFRATUZILMAVIY INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI .....                  | 583 |
| Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li                                                                                                                             |     |
| ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В ЭКОЛОГИИ.....                                                                                          | 587 |
| Максудова Шахиста                                                                                                                                              |     |
| PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI .....                                                         | 593 |
| B.Sh.Shadmanov                                                                                                                                                 |     |
| ECONOMIC INDICATORS OF SUPPLY CHAIN EFFICIENCY IN UZBEKISTAN'S EXPORT SECTOR .....                                                                             | 597 |
| Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna                                                                                                                       |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI VA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                            | 602 |
| Muxtorova Maftuna Salohiddin qizi                                                                                                                              |     |
| RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BANKLARNING XAVFSIZLIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI .....                                      | 607 |
| Aliyeva Umidaxon Xusanboyevna                                                                                                                                  |     |
| XIZMATLAR SOHASI VA KAMBAG'ALLIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....                                                                                            | 611 |
| Dawletmuratov Adilbay Mirzabaeovich                                                                                                                            |     |
| PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL CLUSTERS BASED ON THE PRINCIPLES OF A "GREEN ECONOMY" .....                                                        | 615 |
| Boboqulov Sanjar Baxronkulovich, Kamolov Oybek Faxriddin o'g'li                                                                                                |     |
| ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ..... | 620 |
| Халимжанов Дилшод Эргашбекович                                                                                                                                 |     |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                                      | 626 |
| Mavlyanov Muzaffar Yusupovich                                                                                                                                  |     |
| NAMANGAN VILOYATI TURIZM SOHASINING SO'NGGI YILLARDA RIVOJLANISHI VA STATISTIK TAHLILI .....                                                                   | 630 |
| Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....                                 | 634 |
| Faxriddinov Bahriddin                                                                                                                                          |     |
| INNOVATSION SHAROITDA TO'QIMACHILIK SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....                                                                                | 640 |
| Sattarov Ilkhomjon Rahimjanovich                                                                                                                               |     |
| IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....                                                                              | 645 |
| Nurmatov Norbek Jo'rayevich                                                                                                                                    |     |
| MINTAQA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION VA INSTITUTSIONAL ISTIQBOLLARI .....                                                | 652 |
| Xalimov Javlonbek Shaxriyrovich                                                                                                                                |     |
| KORXONALARNING BANKROTLIK EHTIMOLINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA PROGNOZLASH .....                                                                              | 659 |
| Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li                                                                                                                           |     |
| АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ .....                                                                                                        | 665 |
| Шомуродов Равшан Турсункулович                                                                                                                                 |     |
| MEDIA LOYIHALARINI BOSHQARISH: O'ZBEKISTON OAV AMALIYOTI TAHLILI .....                                                                                         | 673 |
| Yo'ldosheva Dilobar Jaxongir qizi                                                                                                                              |     |
| O'QITISH NATIJALARINI ZAMONAVIY BAHOLASH TAMOYILLARI .....                                                                                                     | 677 |
| Abdullayeva Sanobar Berdiyevna, Xujakulov Shaxriyor Shokir o'g'li                                                                                              |     |
| MALAYZIYADA PROGRESSIV VA INKLYUZIV ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: 2024-YIL TAJRIBASI VA NATIJALARI .....                                             | 681 |
| Safarova Nasiba Gulmurod qizi                                                                                                                                  |     |



# MALAYZIYADA PROGRESSIV VA INKLYUZIV ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: 2024-YIL TAJRIBASI VA NATIJALARI

Safarova Nasiba Gulmurod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Email: [n.safarova@tsue.uz](mailto:n.safarova@tsue.uz)

ORCID: 0009 0002 1923 7502

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Malayziyada islomiy moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha 2024-yilda amalga oshirilgan asosiy siyosiy, tartibga soluvchi va institutsional tashabbuslar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Bank Negara Malaysia (BNM)ning yillik hisobotlari, Maqasid Shariat ballari tizimi (MSS), Qiymatga asoslangan vositachilik (Value-Based Intermediation — VBI) amaliyoti hamda yashil sukuk va SRI (Sustainable and Responsible Investment) obligatsiyalari bozorining kengayishi haqidagi ma'lumotlarga tayangan holda olib borilgan. Maqolada islomiy moliya tizimining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va ekologik muvozanatni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, Malayziya tajribasi asosida islomiy moliya sektorida barqarorlik, moliyaviy inklyuziya va shariatga muvofiqlik tamoyillarini amaliy joriy etishning mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** islomiy moliya, qiymatga asoslangan vositachilik, yashil sukuk, Shariat muvofiqligi, moliyaviy inklyuziya, Malayziya tajribasi.

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the key political, regulatory, and institutional initiatives implemented in Malaysia in 2024 to develop the Islamic finance system. The study is based on data from Bank Negara Malaysia (BNM) annual reports, the Maqasid Shariah Scorecard (MSS), the practice of Value-Based Intermediation (VBI), as well as the expansion of the green sukuk and Sustainable and Responsible Investment (SRI) bond markets. The article offers an in-depth examination of the role of the Islamic finance system in ensuring economic stability, social justice, and environmental sustainability.

**Key words:** Islamic finance, value-based intermediation, green sukuk, Sharia compliance, financial inclusion, Malaysian experience.

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ основных политических, нормативных и институциональных инициатив, реализованных в Малайзии в 2024 году с целью развития системы исламских финансов. Исследование основано на данных годовых отчетов Банка Негара Малайзии (BNM), системе оценки Мақасид Шариата (MSS), практике посредничества, основанного на ценностях (Value-Based Intermediation — VBI), а также на расширении рынка «зеленых» сукуков и облигаций SRI (устойчивых и ответственных инвестиций). В статье подробно анализируется роль исламской финансовой системы в обеспечении экономической стабильности, социальной справедливости и экологической устойчивости.

**Ключевые слова:** исламское финансирование, посредничество на основе стоимости, зеленый сукук, соответствие шариату, финансовая доступность, опыт Малайзии.

## KIRISH

So'nggi yillarda islomiy moliya global moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, Malayziya bu sohada eng ilg'or mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda islomiy moliya institutlari faqat diniy tamoyillarga amal qiluvchi muqobil tizim sifatida emas, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi, ijtimoiy adolatni ta'minlovchi va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi. Malayziya tajribasi shariatga asoslangan moliyaviy vositalarni zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish va ularni keng jamoatchilik o'rtasida ommalashtirish orqali dunyoda o'ziga xos "Malayziya modeli"ni shakllantirgan.

Bank Negara Malaysia (BNM)ning 2024-yilgi faoliyati aynan shu yo'nalishda — progressiv, inklyuziv va qiymatga asoslangan islomiy moliya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u "Moliya sektorini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi 2022–2026" strategik hujjatining ustuvor maqsadlariga muvofiq amalga oshirilgan.



BNM o'z faoliyatini uch asosiy yo'nalishda tashkil etmoqda: birinchidan, qiymatga asoslangan moliyaviy innovatsiyalarni kuchaytirish, ikkinchidan, Shariatga muvofiq tartibga solish muhitini yanada qulaylashtirish, uchinchidan, Malayziyaning xalqaro islomiy moliya markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlash. Ushbu yondashuv orqali nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash va yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish maqsad qilingan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda islomiy moliya tizimi va uning barqaror rivojlanish, inklyuziya hamda yashil iqtisodiyot bilan bog'liqligi bo'yicha jahon va mintaqaviy adabiyotlar sezilarli darajada kengaydi. Shu doirada O'zbekistondagi tadqiqotlar ham mazkur yo'nalishda ildiz otmoqda va Malayziya tajribasi bilan solishtirish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda yozilgan bir qator ilmiy maqolalarda islomiy moliya tizimining joriy holati va istiqbollari tahlil qilingan. Masalan, Hulkar Olimjonovna Botirova "Overview of Islamic Finance in Uzbekistan: Challenges and Prospects" nomli maqolasida O'zbekistonda islomiy moliya loyihalarining imkoniyatlari, to'siqlari va rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Unda, ayniqsa, moliyaviy inklyuziya va barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan islomiy moliyaning imkoniyatlari qayd etilgan [1].

Shuningdek, Farrux Ashurboyev va Eldor Tuxsanov "O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari" maqolasida mamlakatdagi amaliy jihatlar va huquqiy asoslar ko'rib chiqilgan. Mualliflar xususan, islomiy moliya institutlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan shariat normativlari, moliyaviy mahsulotlar va xususiy sektor bilan hamkorlikdagi muammolarni tahlil qilishga e'tibor qaratganlar [2].

Bundan tashqari, Dilnozaxon Dilorxo'jayeva tomonidan yozilgan "Islomiy banklar tizimi va ularning faoliyatini O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari" maqolasida 2022-yilda islomiy banklar faoliyatining asosiy tamoyillari, foizsiz kreditlash, musharaka va mudoraba kabi instrumentlar tahlil qilingan. Ushbu ish O'zbekistondagi islomiy bank tizimini o'rganishda nazariy zamin yaratgan [3].

Adabiyotlar orasida, shuningdek, Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna "Experience of Islamic Financial Organizations in CIS Countries and Opportunities to Use It Effectively in Uzbekistan" maqolasida MDH mamlakatlari kontekstida islomiy moliya tajribalari tahlil qilingan. Ushbu maqolada O'zbekistondagi amaliyotga xorijiy tajribani tatbiq etish imkoniyatlari muhokama qilingan [4].

Mazkur adabiyotlar umumiy holda islomiy moliya tizimining normativ, institutsional va amaliy jihatlarini o'rganayotgan bo'lsa, Malayziya tajribasi 2024-yilda islomiy moliya tizimini progressiv va inklyuziv tarzda shakllantirish borasida strategik amallarni amalga oshirayotgan mamlakat sifatida adabiyotlarda alohida o'rin egallaydi.

Masalan, O'zbekistondagi tadqiqotlarda ko'proq "shariat asosida islomiy banklarni joriy etish" yoki "kreditlash instrumentlari" masalalari muhokama qilingan bo'lsa, Malayziyada e'lon qilingan hisobotlarga ko'ra, islomiy moliya barqaror iqtisodiy o'sish, yashil iqtisodiyotga o'tish va moliyaviy inklyuziya kabi kengroq maqsadlar bilan bog'langan. Bu jihat adabiyotlarda yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan bo'lishi mumkin, shu bois Malayziya tajribasi mazkur ilmiy doirani kengaytirishga xizmat qiladi.

Masalan, Botirova 2023-yilda islomiy moliya va yashil iqtisodiyot integratsiyasini o'rganar ekan, O'zbekistonda bu yo'nalishning katta "potensial"ga ega ekanini ta'kidlagan [5]. Malayziya esa bu potensialni amalda — "Greening Halal Businesses", SRI Sukuk va VBI mexanizmlari orqali — muvaffaqiyatli amalga oshirib bormoqda.

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi ilmiy tadqiqotlar asosan islomiy moliyaning joriy strukturalari va qonunchilik bazasiga e'tibor qaratgan, ijtimoiy inklyuziya, yashil iqtisodiyot va eksportga yo'naltirilgan halol biznes kabi yo'nalishlar esa nisbatan kamroq yoritilgan. Malayziya tajribasi aynan shu kam yoritilgan yo'nalishlarda strategik tashabbuslarni amalga oshirayotgani sababli, ushbu maqola ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada foydalanilgan ma'lumotlar Bank Negara Malaysia (BNM)ning 2024-yilgi yillik hisobotlari, Shariat Kengashi qarorlari, Qiymatga asoslangan vositachilik moliyalashtirish va investitsiya ta'sirini baholash tizimi bo'yicha sektor yo'riqnomalari hamda islomiy moliya bozorini tartibga soluvchi siyosat hujjatlaridan olingan. Ma'lumotlar kontent tahlili usuli yordamida qayta ishlanib, ularning ichki bog'liqligi, maqsod Shariat tamoyillariga muvofiqligi va moliyaviy inklyuziyaga ta'siri baholandi.

Bundan tashqari, tahlilda statistik ma'lumotlardan ham foydalanilgan: 2023-yildan 2024-yilga o'tish davrida islomiy banklarning umumiy moliya tizimidagi ulushi 45,6 foizdan 46,6 foizga, takaful sektorining ulushi esa 23,4 foizdan 23,9 foizga oshgani qayd etilgan. Shu bilan birga, RM25,9 milliard miqdoridagi "yashil" moliyalashtirish loyihalari islomiy banklar tomonidan amalga oshirilgan [6].



## TAHLIL VA NATIJALAR

Malayziya islom moliya tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri — Qiymatga asoslangan vositachilik (Value-based Intermediation, VBI) konsepsiyasining joriy etilganligidir. Ushbu yondashuv islomiy moliya institutlarining faoliyatini faqat daromad olish bilan cheklamay, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik qiymat yaratishga yo'naltiradi. VBI konsepsiyasi orqali islomiy banklar jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan moliyaviy loyihalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratmoqda.

Qiymatga asoslangan vositachilik — bu islomiy moliya institutlarining faoliyatini faqat foyda olishga emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik qiymat yaratishga yo'naltiruvchi konsepsiyadir. Uning mohiyati shundan iboratki, moliyaviy vositachilik jarayonida yaratiladigan har bir iqtisodiy faoliyat shariat tamoyillariga muvofiq bo'lib, adolat, barqarorlik, hamjihatlik va inson farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Qiymatga asoslangan vositachilik konsepsiyasining asosiy maqsadi — islom moliya institutlarini "faoliyatdan qiymatga o'tuvchi" bosqichga olib chiqishdir, ya'ni moliyaviy operatsiyalar orqali jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan natijalarni yaratish. Bu yondashuv maqsod ash-shari'a (shariatning maqsadlari) konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson hayoti, mulki, dini, aqli va naslini himoya qilish tamoyillarini iqtisodiy faoliyatga integratsiya qiladi.

Qiymatga asoslangan vositachilik konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy adolat va inklyuziya. Qiymatga asoslangan vositachilik orqali islomiy banklar moliyaviy xizmatlarni aholining barcha qatlamlariga, ayniqsa, past daromadli guruhlar va kichik tadbirkorlik subyektlariga yo'naltiradi. Shu orqali moliyaviy tizimda tenglik va inklyuzivlik ta'minlanadi.

2. Barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat. Islom moliya institutlari qiymatga asoslangan vositachilik tamoyillari asosida ekologik xavfsizlikni qo'llab-quvvatlaydigan, yashil energiya va barqaror infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi. Shu orqali islom moliyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bilan uyg'unlashadi.

3. Axloqiy boshqaruv va shaffoflik. Qiymatga asoslangan vositachilik modeli islomiy banklar faoliyatida korporativ boshqaruv, mas'uliyat va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytiradi. Bu esa mijozlar ishonchini mustahkamlab, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.


4. Innovatsiya va raqamli transformatsiya. Malayziyada qiymatga asoslangan vositachilik raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilingan. Fintech yechimlar orqali VBI asosida ishlab chiqilgan raqamli moliyaviy mahsulotlar (masalan, e-zakat, waqf-fintech, crowdfunding platformalari) aholining keng qatlamlariga moliyaviy xizmatlarni tezkor va shaffof tarzda yetkazib beradi [6].

Bank Negara Malaysia tomonidan 2022–2026-yillar uchun ishlab chiqilgan yo'lxaritada qiymatga asoslangan vositachilik konsepsiyasi islom moliya sektorining markaziy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. 2024-yil holatiga ko'ra, Malayziyaning barcha yirik islomiy banklari — Bank Islam Malaysia, CIMB Islamic va Maybank Islamic — qiymatga asoslangan vositachilik tamoyillarini o'z strategiyalariga integratsiya qilgan.

Bank Negara Malaysia ma'lumotlariga ko'ra, qiymatga asoslangan vositachilik asosida faoliyat yurituvchi banklarda:


- moliyaviy inklyuziya darajasi 15 foizga oshgan;
- barqaror investitsiyalar hajmi 27 foizga kengaygan;
- ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy mahsulotlar ulushi esa so'nggi uch yilda ikki baravar ko'paygan.

Ushbu natijalar Malayziyada islom moliyasi faqat iqtisodiy foyda vositasi emas, balki ijtimoiy va axloqiy rivojlanish omili sifatida qarayotganini tasdiqlaydi (1,2-rasm).



1-rasm. 2020-2024-yillar oralig'ida Malayziyada islom moliyasi va an'anaviy moliya ulushi<sup>1</sup>

1 Muallif ishlanmasi.

2-rasm. 2023-2024-yillar oralig'ida Malayziyada islom moliyasining ko'rsatkichlari<sup>2</sup>

2024-yilda islomiy moliyalashtirish hajmi 1 133,0 milliard ringgitni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7,9 foizga oshdi. Bu ko'rsatkich an'anaviy moliya tizimidagi 3,5 foizlik o'sishdan deyarli ikki baravar yuqori. Bozor ulushi esa 46,6 foizga yetdi. Ushbu natija shariatga mos moliyaviy mahsulotlarga talab ortib borayotganini, ularning iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashdagi o'rini ko'rsatadi.

Islomiy depozitlar 2024-yilda 1 029,0 milliard ringgit, investitsiya hisoblari esa 169,0 milliard ringgitni tashkil etdi. Yillik o'sish mos ravishda 6,8 foizni tashkil etib, an'anaviy moliya sektoridagi 1,9 foizlik o'sishdan uch baravar yuqori bo'ldi. Bozor ulushi 43,2 foizga yetdi. Kapital yetariligi nisbati 17,9 foiz bo'lib, bu sog'lom moliyaviy barqarorlikni ifodalaydi. Ushbu natijalar islom moliyaviy institutlarining risklarni baham ko'rish va adolatli foyda taqsimoti tamoyillari asosida samarali boshqarilayotganini tasdiqlaydi.

Takaful (islomiy sug'urta) fondi aktivlari hajmi 2024-yilda 59,6 milliard ringgitga yetib, 7,3 foizlik o'sishni qayd etdi. Bozor ulushi 13,9 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, o'sish sur'ati yuqori. Eng katta segment — oilaviy (family) takaful bo'lib, bu aholining uzoq muddatli moliyaviy himoya va jamg'arma ehtiyoji ortib borayotganini ko'rsatadi.

Takaful badallari 2024-yilda 9,9 foizga o'sib, umumiy hajmi 19,0 milliard ringgitga yetdi. Kapital yetariligi nisbati 226,7 foizni tashkil etib, sug'urta sektoridagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natija qayd etildi. Bu esa islomiy sug'urta kompaniyalarining moliyaviy zarbalarga nisbatan yuqori bardoshlilikka ega ekanini bildiradi.

Umuman olganda, islom moliya sektori 2024-yilda Malayziya moliyaviy tizimining yarmiga yaqin qismini egalladi: islomiy moliyalashtirish umumiy kreditlarning 46,6 foizini, islomiy depozitlar 43,2 foizini, takaful esa sug'urta bozorining 13,9–23,9 foizini tashkil etdi.

Malayziyaning "Greening Halal Businesses" (GHB) dasturi islomiy moliya sektorini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash yo'lidagi strategik tashabbus sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur doirasida davlat va moliyaviy institutlar hamkorligida halol korxonalar, xususan kichik va o'rta biznes subyektlarini energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirish choralari ko'rilgan. Natijada, ushbu yondashuv eksport salohiyatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni qisqartirish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Amaliy jihatdan GHB dasturi ikki bosqichli yordam mexanizmini o'z ichiga oladi: "capacity building" (salohiyatni oshirish) va "carbon accounting" (uglerod hisobi) vositalarini qamrab olgan boshlang'ich bosqich, shuningdek, ishtirokchi banklar orqali moliyaviy instrumentlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan keyingi bosqich. 2025-yil budjeti doirasida ajratilgan RM15 millionlik grant dasturga dastlabki moliyaviy turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu mablag'lar kichik va o'rta biznes subyektlari uchun "yashil sertifikat" olish yoki energiya samarador texnologiyalarni xarid qilish kabi xarajatlarni qisman qoplash imkonini yaratadi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvning strategik ahamiyati shundaki, u bozorga kirish xarajatlarini kamaytirish bilan birga, yashil mahsulotlarga bo'lgan talabni moliyaviy jihatdan rag'batlantiradi. Natijada, halol sektor qiymat zanjiri bo'ylab barqaror eksport oqimlari shakllanib, milliy daromad va bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2 Bank Negara of Malaysianing 2024-yilgi reporti asosida muallif tomonidan tayyorlangan



CAKNA I va CAKNA II dasturlari esa davlat xaridlari doirasida kichik va o'rta korxonalarning likvidligini ta'minlashga mo'ljallangan amaliy moliyaviy instrumentlardir. 2021-yildan buyon CAKNA I orqali 305 ta kichik va o'rta korxona RM919 million miqdorida qarzsiz moliyalashtirishdan foydalangan. Dasturning barcha vazirlik va shtat organlarini qamrab olishi moliyaviy yordamning tizimli va keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. CAKNA II esa, asosan, loyiha amalga oshirish bosqichida kichik pudratchilar (G1–G4 toifadagi korxonalar) uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularning likvidlik muammolarini qisqa muddatda hal etishga yordam beradi. Shu tariqa, ushbu dasturlar davlat xaridlari tizimida kichik tadbirkorlarning ishtirokini mustahkamlash, pudratchilar zanjiriga bo'lgan ishonchni oshirish va iqtisodiyotda pul aylanish tezligini saqlashga xizmat qilmoqda. Bizningcha, ushbu mexanizmlar nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki mahalliy bandlikni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ham katta ahamiyatga ega.

“Maqasid Shariah Scorecard” (MSS) tizimi takaful sektorida joriy etilgan innovatsion qiymat o'lchov platformasidir. Ushbu tizim orqali takaful operatorlari o'z faoliyatini maqosid ash-shari'a — ya'ni shariat maqsadlariga muvofiq tarzda baholash imkoniga ega bo'ldilar. MSS tizimida asosiy natija ko'rsatkichlari (KPIlar) moliyaviy bardoshlilik, samarali boshqaruv, jamiyatni kuchaytirish va axloqiy me'yorlarga amal qilish kabi to'rtta ustuvor yo'nalish bo'yicha o'lchanadi [9]. Ushbu yondashuv kompaniyalarni faqat moliyaviy samaradorlik bilan cheklanmasdan, ijtimoiy ta'sir, jamiyat manfaatlarini va korporativ mas'uliyat darajasini ham hisobga olishga undaydi. Natijada, MSS tizimi takaful operatorlarini yanada shaffof va ijtimoiy mas'uliyatli faoliyat yuritishga yo'naltiradi. Shuningdek, MSS indeksleri orqali olingan ma'lumotlar siyosatchilar va regulyatorlarga ijtimoiy ta'sirga ega subsidiyalar yoki qo'shimcha imtiyozlarni yanada maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Yashil va ijtimoiy javobgarlik sukuklari (SRI Sukuk) bozorining 2024-yilda RM11,9 milliardga yetgani Malayziyada barqaror moliyalashtirish infratuzilmasi sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. 2017-yildan beri ushbu ko'rsatkich to'qqiz barobar o'sgani kuzatilmoqda. Bunday o'sish davlat va xususiy sektor o'rtasidagi yashil investitsiyalarni moliyalashtirishdagi hamkorlikning kuchaygani, Yashil va ijtimoiy javobgarlik sukuklari tamoyillariga asoslangan loyiha portfellarining kengaygani hamda investorlarning ekologik va ijtimoiy ta'sirga ega aktivlarga bo'lgan qiziqishi ortganini anglatadi.

Iqtisodiy jihatdan, sukuklar energiya o'tish loyihalari, suv infratuzilmasi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy soha tashabbuslarini moliyalashtirish imkonini beradi. Siyosiy nuqtayi nazardan esa, ushbu mexanizm milliy energiya o'tish strategiyasini moliyaviy jihatdan mustahkamlab, mamlakatni iqlim va ijtimoiy barqarorlik bo'yicha global maqsadlarga yaqinlashtiradi.

“Wakalah bi al-khadamat” asosidagi Malayziya hukumatining investitsiya majburiyati (MGII) islomiy davlat investitsiya instrumentlari doirasida muhim innovatsiya sifatida e'tirof etiladi<sup>3</sup>. Ushbu mexanizm murabaha asosidagi an'anaviy strukturalarga nisbatan yanada moslashuvchan va zamonaviy bo'lib, wakalah (agentlik) kontrakti orqali xizmat ko'rsatish hamda investitsiyani tashkil etishga asoslanadi. Shariat Maslahat Kengashi tomonidan bu strukturani ma'qullash MGII instrumentining shariatga muvofiqligini ta'minlab, uni xalqaro investorlar uchun jozibador qiladi. Wakalah bi al-khadamat modelining afzalligi shundaki, u investorlar va davlat agentlari o'rtasida huquqiy aniqlikni ta'minlaydi, shu orqali likvidlikni oshirib, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini shariatga muvofiq tarzda diversifikatsiya qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya tizimi nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki iqtisodiy adolat va ijtimoiy farovonlikni ham ta'minlash imkoniyatiga ega. Bank Negara Malaysia (BNM)ning 2024-yildagi faoliyati bu borada muhim konseptual yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etgan. Ayniqsa, qiymatga asoslangan vositachilik tamoyillari orqali moliyaviy vositachilikni maqosid Shariatga moslashtirish va real iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan.

Shariat Kengashining 2024-yilgi qarorlari esa Shariat asosida zamonaviy moliyaviy instrumentlarni kengaytirish uchun huquqiy asos yaratdi. Masalan, “prognoz asosida risklardan himoyalaniish” mexanizmining risklarni oldindan boshqarish vositasi sifatida Shariatga muvofiq deb e'tirof etilishi yoki “tavarruq” amaliyotiga oid yangilangan me'yorlar — bularning barchasi islomiy moliyani global moliyaviy tizim bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Yashil sukuklar, vaqf asosidagi moliyaviy vositalar va ijtimoiy ta'sirli investitsiyalar orqali islomiy moliya nafaqat barqarorlikni, balki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari (SDG) bilan uyg'un iqtisodiy modellarni ham shakllantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Malayziya islomiy moliyani “progressiv va inklyuziv iqtisodiy o'sish” modeli sifatida targ'ib etayotgan eng ilg'or mamlakatlardan biri hisoblanadi.

3 Malayziya hukumatining investitsiya majburiyati — bu Malayziya hukumati tomonidan chiqariladigan islomiy davlat qimmatli qog'ozlari bo'lib, u shariat tamoyillariga muvofiq investitsiya instrumenti sifatida ishlab chiqilgan. U orqali davlat ichki va tashqi bozorlardan mablag' jalb qiladi, ya'ni bu — davlat qarzini islomiy asosda boshqarish vositasidir.



Yuqoridagi tahlillar shuni tasdiqlaydiki, 2024-yilda Malayziyada islomiy moliya sektori strategik innovatsiyalar, normativ yengilliklar va xalqaro hamkorlik orqali sezilarli o'sishga erishdi. BNM tomonidan amalga oshirilgan siyosatlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham ijobiy natijalar berdi.

Kelgusida ushbu model boshqa musulmon mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham islomiy moliya tizimini modernizatsiya qilishda namuna bo'lishi mumkin. Shariatga asoslangan, barqaror va inklyuziv moliya tizimi iqtisodiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim mexanizm sifatida o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Botirova, H. O. (2023). Overview of Islamic Finance in Uzbekistan: Challenges and Prospects. *European Science Review*, №2, 45–53.
2. Ashurboyev, F. & Tuxsanov, E. (2022). O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, №3, 64–71.
3. Dilovarxo'jayeva, D. D. (2022). Islomiy banklar tizimi va ularning faoliyatini O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari. *Muhandislik va iqtisodiyot jurnali*, №2, 77–85.
4. Sattarova, D. D. (2023). Experience of Islamic Financial Organizations in CIS Countries and Opportunities to Use It Effectively in Uzbekistan. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, №4, 59–68.
5. Botirova, H. O. (2023). Islomiy moliya va yashil iqtisodiyot integratsiyasi: O'zbekiston uchun imkoniyatlar. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, №5, 40–49.
6. Bank Negara Malaysia (2025). Annual Report 2024: Promoting a Progressive and Inclusive Islamic Financial System. Kuala Lumpur.
7. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2024). Islamic Financial Stability Report. Kuala Lumpur.
8. World Bank & IsDB. (2024). Greening Halal Businesses Initiative Report.
9. Malaysian Takaful Association (2024). Maqasid Shariah Scorecard (MSS) Framework.
10. ASEAN Capital Markets Forum (2024). ASEAN Green Bond and SRI Sukuk Guidelines.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---